



UMUMIY SUG'URTA TARMOG'I VA HAYOTNI SUG'URTA QILISH SOHASI INVESTITSION SALOHİYATINING QIYOSIY TAHLILI

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE INVESTMENT CAPACITY OF THE GENERAL INSURANCE INDUSTRY AND THE LIFE INSURANCE INDUSTRY

¹**Ostonov Muhriddin
Bahridin o'g'li**

¹*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Mazkur ilmiy maqolada umumiy sug'urta va hayotni sug'urta qilish sohalarining investitsion salohiyati qiyosiy jihatdan tahlil qilingan. Sug'urta bozori tarkibidagi bu ikki asosiy segmentning iqtisodiy o'sishdagi roli, kapital jamg'arish imkoniyatlari, investitsiya yo'nalishlari va xavf-xatarni boshqarishdagi strategik o'rni ilmiy asosda o'rganilgan. Tahlil jarayonida statistik ma'lumotlar, tarmoqlararo solishtirma ko'rsatkichlar, shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalar asosida kompleks yondashuv qo'llanilgan.

Eng. - This scientific article provides a comparative analysis of the investment potential of the general insurance and life insurance sectors. The role of these two main segments of the insurance market in economic growth, capital accumulation opportunities, investment directions and strategic role in risk management are scientifically studied. The analysis uses a comprehensive approach based on statistical data, cross-sectoral comparative indicators, as well as advanced foreign experience.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *sug'urta bozori, umumiy sug'urta, hayotni sug'urta qilish, investitsion salohiyat, tahlil, qiyosiy baholash, xavfni boshqarish.*

❖ *insurance market, general insurance, life insurance, investment potential, analysis, benchmarking, risk management.*

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy institutlarning real sektor bilan o'zaro integratsiyasi chuqurlashar ekan, sug'urta bozori investitsiya muhitining barqaror rivojlanishida muhim rol o'ynamoqda. Ayniqsa, umumiy sug'urta va hayotni sug'urta qilish tarmoqlari nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda, balki moliyaviy resurslarni uzoq muddatli investitsiyalarga yo'naltirishda ham asosiy vositachilar sifatida maydonga chiqmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston sug'urta bozorida ijobiy o'sish kuzatilayotgan bo'lsa-da, tarmoqning investitsion salohiyati, uning ichki tarkibiy tuzilmasi, aktivlar portfeli va ularni boshqarish strategiyalarida sezilarli farqlar

mavjud. Jumladan, hayotni sug'urta qilish sohasi uzoq muddatli jamg'arish funksiyasi orqali ko'proq investitsiya imkoniyatlariga ega bo'lsa, umumiy sug'urta tarmog'i qisqa muddatli likvid aktivlar bilan ishlaydi va bu o'z navbatida investitsion modelda turlicha yondashuvlarni talab etadi.

Mazkur maqola ushbu ikki tarmoqning iqtisodiy va investitsion jihatdan qiyosiy tahlilini amalga oshirib, ularning salohiyatini baholash, ustunlik va cheklovlarini aniqlash, hamda sohalarining rivojlanish istiqbollari belgilashni maqsad qilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Ushbu mavzu doirasida ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar ilmiy fikr va mulohazalar

yuritishgan bo'lib ulardan ayrimlari quyida keltirib o'tiladi.

Quang Khai Nguyenning fikriga ko'ra, hayot sug'urta bozorining kengayishi bank barqarorligi uchun ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ammo bozor tez rivojlansa, bank xavfsizligi uchun salbiy bo'lishi mumkin [1].

Felix FieBinger va Mitja Stadjelarning ilmiy izlanishlarida hayot sug'urtasi haqida hayot sug'urta kompaniyalarida "surplus participation" mexanizmi kapital strukturasini va investitsion riskni optimallashtirishga yordam beradi – siyosat muddati va soliqqa bog'liqlik sezilarli ahamiyat kasb etadi [2] kabi fikrlar ilgari surilgan.

Mahalliy olimlardan esa Sh.U.Kiyasov o'z ilmiy maqolasida hayotni sug'urtasi uzoq muddatli investitsiya va xalqning moliyaviy himoya funksiyalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Xorij tajribasini raqamlashtirish va zamonaviy savdo vositalari bilan moslashtirish taklifni ilgari surgan bo'lsa [3], yana bir olim O.T.Yuldashevning tadqiqotlarida esa hayotni sug'urtasi (akkumulativ) boshqa investitsiya vositalariga nisbatan o'ziga xos afzalliklarga ega. Uzoq muddatli jamg'arishlar orqali investitsiya salohiyatini oshiradi va xalqning moliyaviy xulq-atvorini ijobiy shakllantiradi [4] kabi fikrlarga to'xtalib o'tishgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola ishidagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi usullardan keng foydalanilgan.


Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi globallashtirish va raqobat kuchaygan iqtisodiy sharoitda moliyaviy institutlarning investitsion salohiyatini to'g'ri baholash va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday muhim institutlar qatoriga sug'urta tashkilotlari kiradi. Sug'urta sohasi

moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, risklarni boshqarish hamda uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jamg'arish orqali iqtisodiyotning turli tarmoqlarini moliyalashtirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, umumiy sug'urta va hayotni sug'urta qilish tarmoqlari o'zining turli xususiyatlari va faoliyat mexanizmlariga ega bo'lgan holda, investitsiya faoliyatida ham o'zaro farq qiladi.

Umumiy sug'urta tarmog'i qisqa muddatli shartnomalar asosida ishlaganligi sababli, uning investitsion strategiyasi ko'proq likvidlikka yo'naltiriladi. Hayotni sug'urta qilish sohasi esa uzoq muddatli majburiyatlarga ega bo'lganligi bois, barqaror va uzoq muddatli investitsiya imkoniyatlarini kengroq ochadi. Shu sababli, ushbu ikki tarmoqning investitsion salohiyati, daromadlilik darajasi va kapitalni joylashtirish strategiyasi bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Umumiy sug'urta va hayotni sug'urta qilish tarmoqlarining investitsion faoliyati ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilinadi hamda ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri, resurslarni samarali joylashtirishdagi o'rni baholanadi. Bu orqali sug'urta sektorining investitsiya bozori ishtirokchisi sifatidagi real salohiyati aniqlanadi va tegishli takliflar ishlab chiqiladi.

Quyidagi jadvalda 2019-2023-yillarda sug'urta tashkilotlari tomonidan iqtisodiyot sohalariga yo'naltirilgan investitsiyalarning ulushini tahlil qilib chiqamiz. Bank depozitlariga yo'naltirilgan investitsiyalar yildan-yilga oshib, 2019-yildagi 52,5 foizdan 2023-yilda 65,7 foizga yetgan. Qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar kamayib borgan: 2019-yildagi 31,3 foizdan 2023-yilda 22,1 foizga tushgan. Zayomlar ulushi juda kichik bo'lib, 1,3 foiz bilan eng yuqori darajaga 2021-2022-yillarda yetgan, ammo 2023-yilda 0,8 foizga tushgan. Ko'chmas mulk investitsiyalari nisbatan barqaror bo'lib, 6,6-9,2 foiz oralig'ida o'zgarib turgan.




1-rasm. Sug'urta tashkilotlari tomonidan iqtisodiyot sohalariga yo'naltirilgan investitsiyalarning ulushi, foizda [5]

Sug'urta tashkilotlari o'z investitsiya portfelida eng ko'p xavfsiz, barqaror daromad keltiruvchi vositalar ayniqsa, bank depozitlariga ustuvorlik bergan. Bu ularning riskka nisbatan konservativ yondashuvini aks ettiradi. Shu bilan birga, qimmatli qog'ozlar va boshqa faol investitsiya yo'nalishlarining ulushi kamaygani, risk va daromadlilik o'rtasidagi muvozanatning ehtiyotkorlik bilan yuritilayotganini ko'rsatadi.

2019-2023-yillar davomida sug'urta bozori infratuzilmasi subyektlari sonining o'zgarishi bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilib chiqamiz. Sug'urta tashkilotlari soni 2019-2021-yillarda oshgan (36 dan 42 taga), bu esa

bozorga yangi kompaniyalarning kirib kelganini bildiradi. Ammo 2022-2023-yillarda ularning soni kamaygan (41 dan 38 taga), bu sohada konsolidatsiya (qo'shilish, tugatish yoki litsenziya yo'qotish) jarayonlari sodir bo'lganini ko'rsatadi. 2021-yilgacha brokerlar soni o'zgarmagan bo'lsa-da, 2022-2023-yillarda ularning sezilarli o'sishi kuzatilgan. Bu, sug'urta mahsulotlarini bozorga yetkazish tizimida vositachilarning ahamiyati ortayotganidan dalolat beradi. Assistans kompaniyalari soni barqaror bo'lib qolmoqda. Bu sohadagi raqobat yoki talab o'zgarmagan, ehtimoliy to'yinganlik yoki o'zgarishga ehtiyoj yo'qligini ko'rsatadi.



2-rasm. Sug'urta bozori infratuzilmasi subyektlari yillar davomida o'zgarish, soni, ta [6]


Syurveerlar 2019-yildan keyin bir birlikka kamaygan va keyingi yillarda o'zgarmagan. Bu barqaror, biroq cheklangan o'sish salohiyatiga ega bo'lgan segment hisoblanadi. Adjusterlar esa butun besh yillik davrda o'zgarmagan. Bu ushbu xizmat turi bozorida raqobat juda kam yoki barqaror faoliyat yurituvchi kompaniyalar mavjudligini bildiradi. Aktuar xizmatlari soni ham barqaror. Bu yuqori malakali kadrlar va litsenziyalashga bo'lgan ehtiyoj yuqoriligini, lekin sohada o'sish cheklanganligini bildiradi.

Sug'urta bozori infratuzilmasi barqaror rivojlanmoqda, biroq ayrim subyektlar (xususan, brokerlar) bo'yicha o'sish, boshqalarida esa muvozanat va to'xtash holatlari kuzatilmoqda. Kelgusida bu

infratuzilma tarkibiy qismlarining muvozanatli rivojlanishini ta'minlash, xizmatlar sifatini oshirish va kadrlar salohiyatini kengaytirish orqali butun sohaning raqobatbardoshligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

2019-2023-yillar davomida sug'urta kompaniyalari bo'linmalari, xususan shahar va qishloqlardagi filiallar sonining o'zgarishini tahlil qilib chiqamiz. Sug'urta bo'linmalar soni 2019-2021-yillarda uzluksiz o'sib, eng yuqori nuqtaga 2022-yilda 1967 taga yetgan.

2023-yilda esa ularning soni biroz kamaygan. Bu sug'urta kompaniyalarining mintaqaviy kengayish strategiyasidan biroz chekinayotganini yoki resurslarni optimallashtirishga o'tayotganini bildiradi.



3-rasm. Sug'urta kompaniyalari bo'linmalari shu jumladan, shaharlarda hamda qishloqlarda soni, ta [6]

Shaharlardagi bo'linmalar soni 2019-2022-yillarda sezilarli o'sdi (1185 dan 1413 taga), bu esa sug'urta xizmatlariga shahar hududlarida talab yuqori bo'lganini ko'rsatadi. 2023-yilda esa biroz pasayish kuzatilgan (1358 taga), bu ehtimoliy optimallashtirish yoki resurslarni qayta taqsimlash bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Qishloqlardagi bo'linmalar soni 2020-yilda maksimal darajaga (648 ta) yetgan bo'lsa-da, keyingi yillarda sezilarli pasaygan. 2023-yilda bu ko'rsatkich 552 taga tushgan. Bu holat qishloq joylarda sug'urta xizmatlariga bo'lgan talab pastligi yoki

iqtisodiy samarasizlik sababli filiallar yopilganini ko'rsatadi.


Kelgusida raqamli sug'urtalash xizmatlari rivojlantirilsa, ayniqsa qishloq hududlarida filiallar sonini oshirmasdan ham kengroq qamrovga erishish mumkin. Shu bilan birga, qishloqlarda moliyaviy savodxonlikni oshirish ham bu bozorni jonlantirishga xizmat qiladi.

2019-2023-yillar davomida sug'urta mukofotlari hajmi va ularning yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) ulushi tahlil qilamiz. 2023-yilda sug'urta mukofotlari ilk bor

8059,7 mlrd.soʻmdan oshgan, bu esa sohada faol rivojlanish, yangi mahsulotlar, majburiy sugʻurtalashning kengayishi yoki aholining ishonchi ortib borayotganini anglatadi.

2020-yilda bu ulush 0,38 foizga tushgan, bu ham pandemiya taʼsirining iqtisodiy

koʻrinishi boʻlishi mumkin. 2021-yildan boshlab ulush barqaror oʻsmoqda 2023-yilda 0,8 foizga yetgan. Bu shuni anglatadiki, sugʻurta sohasi YaIMdagi ulushini orttirib bormoqda, yaʼni iqtisodiyotdagi ahamiyati kuchaymoqda.



4-rasm. 2019-2023-yillarda jami sugʻurta mukofotlarning YaIMdagi ulushi [6]

YaIMdagi ulushining ortib borishi sugʻurta sohasining iqtisodiyotdagi oʻrni mustahkamlanayotganini koʻrsatadi. Bu ijobiy oʻzgarishlar sugʻurta xizmatlariga boʻlgan talab ortayotganini, aholining moliyaviy xabardorligi oshayotganini va davlat tomonidan tartibga solish va qoʻllab-quvvatlash choralarining natijasini ifodalaydi. Kelgusida bu tendensiyani davom ettirish uchun aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, sugʻurta mahsulotlarini diversifikatsiya qilish va raqamli texnologiyalarni keng qoʻllash muhim boʻladi. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida sogʻliqni saqlash, pensiya va boshqa ijtimoiy

sohalarda sugʻurtalash tizimini kengaytirish orqali mukofotlar hajmini yanada oshirish mumkin.

2019-2023-yillar davomida sugʻurta tashkilotlari tomonidan yigʻilgan sugʻurta mukofotlari, jami ustav kapitali va investitsiya mablagʻlarining tahlilini amalga oshiramiz. Bu koʻrsatkichlar orqali sugʻurta sektorining moliyaviy salohiyati va uning iqtisodiyotdagi roli baholanadi. 2021-2023-yillarda sugʻurta mukofotlari 3,6 baravarga oshgan. Bu sohaning faolligi va bozor talabi keskin oʻsganini koʻrsatadi.

1-jadval

Sugʻurta tashkilotlari tomonidan yigʻilgan sugʻurta mukofotlari, ustav kapitali va investitsiya mablagʻlarining, mlrd. soʻm [6]

Koʻrsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023
Sugʻurta mukofotlari	2 314,1	2 213,7	3 733,0	6 231,7	8 059,7
Jami ustav kapitali	755,2	1 439,0	1 590,0	1 884,0	2 299,0
Investitsiya mablagʻlari	2711,9	3354,6	3746,7	4 751,8	6 149,9

Ustav kapitali 2019-2023-yillarda uch barobar oshgan. Bu sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, qonunchilikdagi talablarning kuchayishi va investorlar ishonchining ortishini bildiradi. Investitsiya mablag'lari 2019-2023-yillarda 2,3 barobarga oshgan. Bu sug'urta kompaniyalarining to'plangan mablag'larni iqtisodiyotga jalb etish imkoniyatlari kengayganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2022-2023-yillarda sezilarli o'sish kuzatilgan. Sug'urta sektorining iqtisodiyotdagi rolini oshirish uchun uzoq muddatli investitsiya strategiyalarini qo'llab-quvvatlash, raqamli xizmatlar va moliyaviy savodxonlikni kuchaytirish zarur. Kapital bazasini mustahkamlash va mukofotlar hajmini oshirish orqali investitsion imkoniyatlarni yanada kengaytirish mumkin.

O'zbekistonda sug'urta juda yuqori geografik kontsentratsiya bilan tavsiflanadi. Buning sababi shundaki, sug'urta obyektlari respublika hududida taqsimlangan bo'lsa-da, deyarli barcha moliyaviy oqimlar poytaxtda to'plangan. Bundan tashqari, mahalliy sug'urtalovchilarning muhim qismi korporativ mijozlar bilan ishlashga yo'naltirilgan va chakana savdoni rivojlantirmaydi. Jismoniy mulkni sug'urtalashda shaxslar sug'urta mukofotini mintaqalar bo'yicha taqsimlash manzarasi boshqacha bo'lar edi.

2019-2023-yillar davomida O'zbekiston bo'yicha sug'urta kompaniyalari bo'linmalari sonining hududlar kesimidagi o'zgarishini tahlil qilamiz. Sug'urta kompaniyalari bo'linmalari soni 5 yilda 35 foizga oshgan, bu sohaning hududiy kengayishi va aholiga yaqinlashish strategiyasining amalga oshirilganini ko'rsatadi. Toshkent shahri, Farg'ona, Toshkent viloyati va Samarqand sug'urta xizmatlari eng faol bo'lgan markazlar hisoblanadi. 2023-yilda o'sish to'xtab, barqarorlik bosqichiga o'tilgan. Bu esa sifatga, xizmat ko'rsatish darajasiga va raqamli xizmatlarga e'tibor qaratilayotganidan darak.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot davomida umumiy sug'urta tarmog'i hamda hayotni sug'urta qilish sohasi o'rtasida mavjud bo'lgan investitsion salohiyat, ularning tuzilmasi, faoliyat mexanizmlari va iqtisodiy ko'rsatkichlari qiyosiy asosda chuqur tahlil qilindi. Tahlillar natijasida ushbu ikki tarmoqning investitsiyaviy yo'nalishda tubdan farq qiluvchi xususiyatlarga ega ekani, bu esa ularni boshqarish va rivojlantirishda differensial strategiyalarni talab etishini ko'rsatdi.

Hayotni sug'urta qilish sohasi o'zining uzoq muddatli xarakteri, akkumulativ mahsulotlari, jamg'arma imkoniyatlari va kafolatlangan daromadlilik mexanizmlari orqali investitsiyalarni jalb qilishda yuqori salohiyatga ega. Ayniqsa, ushbu tarmoq orqali yig'iladigan mablag'larning uzoq muddatli moliyaviy instrumentlarga yo'naltirilishi milliy iqtisodiyotda investitsion faollikni oshirishga xizmat qiladi. Xorijiy tajribalar asosida aniqlanishicha, rivojlangan mamlakatlarda hayotni sug'urtalash sohasi pensiya, ipoteka va infratuzilma loyihalari uchun muhim moliyalashtiruvchi manbaga aylangan.

Boshqa tomondan, umumiy sug'urta tarmog'i qisqa muddatli risklarni boshqarishga ixtisoslashgan bo'lib, u asosan likvid vositalar bilan ishlaydi va uning investitsion salohiyati nisbatan pastroq darajada baholandi. Biroq bu tarmoqning afzalligi — operativ javob berish qobiliyati, sug'urtaviy portfelning xilma-xilligi va bozor talablariga moslashuvchanligidir. Uning likvid resurslari qisqa muddatli obligatsiyalar, depozitlar va davlat qimmatli qog'ozlariga yo'naltirilishi orqali muayyan darajada barqaror investitsiya oqimini ta'minlab beradi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda hayotni sug'urta qilish sohasi hali to'liq shakllanmagan bo'lib, mavjud imkoniyatlarga qaramay, bu sohaning salohiyatidan to'liq foydalanilmayapti. Bunda aholining moliyaviy savodxonligi, ishonch darajasi, qonunchilik bazasining yetarlicha

rivojlanmagani va moliyaviy instrumentlarning yetishmasligi asosiy to'siqlar sifatida namoyon bo'ldi.

Umumiy sug'urta esa bozorda nisbatan faolroq va raqobatbardoshroq tarmoq hisoblanadi, biroq uning investitsiyalarga ta'siri qisqa muddatli va kam rentabellikli

bo'ladi. Bu tarmoqda investitsiya salohiyatini oshirish uchun uning moliyaviy aktivlar portfelini diversifikatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va xalqaro reytinglar bilan ishlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nguyen Q. K. *The development of the life insurance market and bank stability in developing countries* // *Heliyon*. – 2024. – T. 10. – № 19.
2. Fießinger F., Stadje M. *Mean-variance optimization for participating life insurance contracts* // *Insurance: Mathematics and Economics*. – 2025. – T. 122. – C. 230-248.
3. Kiyasov Sh.U. *O'zbekistonda hayotni sug'urta qilish bozorini rivojlantirish zarurati va istiqbollari*. // *"Economics and Innovative Technologies"* jurnali. – 2025. – №1. – B. 33-39.
4. Yuldashev O.T. *Ways of development of accumulative life insurance in Uzbekistan*. // *Central Asian Journal of Innovations in Tourism, Management and Finance*. – 2023. – Vol. 4(2). – P. 22-29.
5. *O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Sug'urta kompaniyalari faoliyati to'g'risida ma'lumotlar* – Toshkent, 2024. – <https://cbu.uz>
6. *O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Sug'urta bozori bo'yicha yillik hisobot* – Toshkent, 2024. – [Online]. – <https://www.mf.uz>